BANK OMONAT SHARTNOMASI – OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu hujjat "Asia Alliance Bank" ATBning (bundan buyon matnda **Bank** deb yuritiladi) "Asia Alliance Bank" ATBda bank hisobvarқасига ega bo‘lgan jismoniy shaxs bilan ushbu Ofertada bayon etilgan sharlarda bank omonat shartnomasini tuzish bo‘yicha rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (bundan buyon matnda O‘zR FK deb yuritiladi) 369 va 370-moddalariga muvofiq, ushbu Ofertani aksept qilish Omonatchi tomonidan mobil banking tizimidagi (bundan buyon matnda **Tizim** deb yuritiladi) tasdiqlash tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Ko‘rsatilgan tugmaning bosilishi Omonatchining ushbu Ommaviy oferta shartlariga hamda mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan tanlangan omonat shartlariga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi. Ushbu Ofertani aksept qilgan jismoniy shaxs Omonatchi maqomini oladi, Bank va Omonatchi esa birgalikda Shartnomaning Tomonlari deb yuritiladi.

Tizim Ofertani aksept qilish faktini, tegishli harakat sodir etilgan sana va vaqtni qayd etishni ta’minlaydi. Ofertani aksept qilish Omonatchining taklif etilayotgan shartnoma shartlariga roziligini tasdiqlaydi, bunda bank omonat shartnomasining tuzilgan vaqti mazkur Shartnomaning 1.6-bandiga muvofiq belgilanadi.

1.3. Omonatchi omonat summasini ko‘rsatadigan va o‘zining bank hisobvarag’idan omonat hisobvarag’iga pul mablag‘larini o‘tkazish bo‘yicha topshiriq beradigan, Tizim tomonidan shakllantiriladigan Ariza mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.4. Omonatchi tomonidan ushbu Ommaviy ofertaga o‘tishdan oldin Tizimda tanlangan omonat shartlari mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Tanlangan shartlarning mazmuni elektron shaklda qayd etiladi hamda Ofertani aksept qilish paytida Tomonlar tomonidan kelishilgan omonat shartlarini belgilash imkonini berishi kerak.

1.5. Omonat hisobvaragi’ga pul mablag‘larini o‘tkazish valyutasi faqatgina ochilayotgan omonat valyutasiga mos keladigan Omonatchining bank hisobvarag’idan amalga oshiriladi.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 759-moddasiga muvofiq, bank omonati shartnomasi omonat summasi Bankka kelib tushgan kundan e’tiboran tuzilgan hisoblanadi. Mazkur Shartnoma maqsadlari uchun uning tuzilgan payti ushbu Oferta aksept qilinganidan so‘ng pul mablag‘larining Bankka kelib tushishi va Omonatchining omonat hisobvarag‘iga kirim qilinishini hisobga olgan holda belgilanadi.

1.7. Ushbu Ofertaning aksept qilinishi Omonatchi tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlari hamda tanlangan omonat shartlarining to‘liq va hech qanday e’tirozlarsiz qabul qilinganligini anglatadi. Mazkur omonat shartlari ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.8. Shartnomaning tuzilganligi va pul mablag‘larining omonat hisobvarag‘iga kirim qilinganligi tegishli operatsiya amalga oshirilishi natijasida Tizim tomonidan shakllantiriladigan elektron hujjat bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat Shartnoma tuzilganligi faktini, omonatning kelishilgan shartlarini, omonat summasi va valyutasini, shuningdek, pul mablag‘lari kirim qilingan sanani aniqlash imkonini berishi lozim.

Omonatchi omonat ochilganligi to‘g‘risidagi tasdiqni Tizim orqali hujjat bilan tanishish, uni saqlab qo‘yish va keyinchalik qayta ko‘rish imkonini beradigan shaklda, shuningdek, Tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilgan mobil telefon raqamiga yuboriladigan SMS-xabar orqali oladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Omonatchi masofadan pul mablag‘larini omonatga kiritadi, Bank esa Omonatchining bank hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘tkazish va ularni omonat hisobvarag‘iga kirim qilish yo‘li bilan omonatga qabul qiladi hamda ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Omonat shartlarida nazarda tutilgan shartlar va tartibda omonatni qaytarish hamda unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

Omonat shartlarida omonatning nomi va turi (muddatli yoki jamg‘arma omonati), omonat valyutasi va muddati, yillik foiz stavkasi miqdori, omonatning eng kam summasi, pul mablag‘larini omonatga qo‘shimcha kirim qilish va qisman yechib olish shartlari, foizlarni to‘lash tartibi, shuningdek, omonatni muddatidan oldin qaytarish shartlari va tartibi belgilanadi.

2.2. Omonat hisobvarag‘ining rekvizitlari va omonatning asosiy parametrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Tizimning «Mening mahsulotlarim» bo‘limida aks ettiriladi hamda quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: omonatning nomi, turi va valyutasi, Bank nomi, omonat ochilgan sanasi va omonat muddati tugaydigan sanasi, yillik foiz stavkasi miqdori, omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘larining joriy qoldig‘i, hisoblangan, biroq to‘lanmagan foizlar summasi hamda omonat hisobvarag‘ining raqami.

3. HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Omonat summasiga foizlar kunlik, milliy valyutadagi omonatlar bo‘yicha bir yil 365 kun, chet el valyutasidagi omonatlar bo‘yicha esa bir yil 360 kun hisobidan hisoblanadi. Bunda foizlarni hisoblash pul mablag‘lari omonat hisobvarag‘iga kelib tushgan kundan keyingi kundan boshlanadi hamda omonat Omonatchiga qaytarilgan kundan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida yoxud ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslar bo‘yicha omonat hisobvarag‘idan hisobdan chiqarilgan kundan oldingi kungacha amalga oshiriladi.

3.2. Tegishli pul mablag‘lariga nisbatan xatlov qo‘yilishi natijasida Bank qonunchilikda belgilangan tartibda ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan davr uchun omonat summasiga foizlar hisoblanmaydi. Omonat Bank tomonidan omonat muddati tugaganidan keyingi kunida qaytariladi.

3.3. Omonatchining talabiga asosan omonat muddatidan avval qaytarilgan taqdirda, hisoblangan foizlar Omonat shartlarida va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan miqdor va tartibda, shuningdek, omonat muddatidan avval qaytarilganda foizlarni qayta hisoblash bo‘yicha Omonat shartlarida belgilangan tartibni inobatga olgan holda to‘lanadi.

3.4. Omonat bo‘yicha Omonatchiga har oyda, har chorakda yoki Omonat shartlarida belgilangan boshqa davriylikda to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar Bankdagi Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvarag‘iga avtomatik ravishda kirim qilinadi.

3.5. Omonat muddati tugaganidan keyingi kunida Tizimda omonat hisobvarag‘i avtomatik ravishda yopiladi, omonat summasi va unga hisoblangan foizlar esa Bankda Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

3.6. Omonatni muddatidan avval to‘liq yoki qisman talab qilib olish holatida Omonatchi tegishli topshiriqni Tizim orqali yuborish yoki Bankning tegishli bo‘linmasiga shaxsan murojaat qilish orqali yozma ariza taqdim etish huquqiga ega.Tizim orqali topshiriq rasmiylashtirilganda, Omonatchi pul mablag‘larini (omonat summasi va foizlarni) o‘tkazish uchun mavjud bo‘lgan, o‘ziga tegishli bank hisobvarag‘ini, shu jumladan talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqni, bank kartasi hisobvarag‘ini yoki elektron hamyon hisobvarag‘ini mustaqil ravishda tanlaydi.

3.7. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan va doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan norezidentlarning daromadlaridan olinadigan soliq daromadni norezidentga to‘lovchi soliq agenti tomonidan hisoblanadi va ushlab qolinadi.

Bank soliq agenti sifatida Omonatchi — norezidentga to‘lanadigan omonat bo‘yicha foizlar ko‘rinishidagi daromadlardan soliqni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hisoblaydi, ushlab qoladi va o‘tkazib beradi. Soliqni ushlab qolish foizlarning har bir to‘lovi amalga oshirilganda bajariladi.

Omonatchi Bankka uning soliq maqomini aniqlash hamda omonat bo‘yicha foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni soliqqa tortish to‘g‘risidagi qonunchilik qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash uchun zarur bo‘lgan haqqoniy ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishi shart.

Omonatchi tomonidan o‘z soliq maqomi o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan Omonatchining joriy kalendar yil uchun O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda, Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan sanadan boshlab va tartibda tegishli soliqqa tortish tartibini qo‘llaydi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagi majburiyatlarni o’z zimmasiga oladi:

4.1.1. Omonatchi Bankka omonatni ochish, unga xizmat ko‘rsatish va omonatni qaytarish masalalari bo‘yicha murojaat qilganida unga maslahatlar berish;

4.1.2. Omonatchidan pul mablag'larini omonatga qabul qilish va Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda Omonat summasiga foizlar to'lash;

4.1.3. Omonatchining talabiga asosan omonat summasini ushbu Shartnomaning 3.3-bandida va Omonat shartlarida belgilangan tartibda qaytarish yoki Omonatchining topshirig‘iga asosan tegishli pul mablag‘larini boshqa tarzda tasarruf etish;

4.1.4. Omonat, omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar hamda Omonatchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga nisbatan bank sirini saqlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar va tartibda uchinchi shaxslarga ma’lumot taqdim etish bundan mustasno;

4.1.5. Omonatchi yoki uning vakillarining so‘roviga ko’ra oyiga bir marta bepul asosda Hisobvaraq holati to‘g‘risida, ya’ni ma’lumot taqdim etilgan sanadagi pul mablag‘lari qoldig‘i, hisoblangan foizlar summasi hamda to‘langan foizlar summasi haqida ma’lumot taqdim etish, bunda Bank Tariflarida talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo‘yicha foiz stavkasi belgilangan bo‘lishi lozim. Omonatchi yoki uning vakillari tomonidan bir oy davomida takroran murojaat qilingan taqdirda, mazkur ma’lumotlarni taqdim etish uchun Bank Tariflariga muvofiq haq undiriladi.

4.1.6. Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar Bank tomonidan to‘xtatib qo‘yilgan taqdirda, operatsiyalar to‘xtatib qo‘yilgan sanadan keyingi ish kunidan kechiktirmay, Mijozga uning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va buning sabablari to‘g‘risida bildirishnoma (xabarnoma) yuborish;

4.1.7. jismoniy shaxslar bilan tuziladigan bank omonati shartnomalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4.2. Omonatchi quyidagi majburiyatlarni o’z zimmasiga oladi:

4.2.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan depozit hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga rioya qilish;

4.2.2. Omonatchi familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash manzili, pasport ma'lumotlari / shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat ma'lumotlari, aloqa telefoni, shuningdek ushbu Shartnoma tuzilgan paytda taqdim etilgan boshqa ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan paytdan boshlab o'n ish kuni ichida Bankni xabardor qilish. Pasport ma'lumotlari / shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat ma'lumotlari o'zgarganda, Bankka shaxsni tasdiqlovchi yangi hujjatni taqdim etish (familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarganda qo'shimcha ravishda ushbu ma'lumotlar o'zgarganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish);

4.2.3. Bankda o'rnatilgan ish tartibiga, hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qilish, bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar talablarini, shuningdek ushbu Shartnomaning 6-bo'limida ko'rsatilgan Komplayens-talablarni bajarish;

4.2.4. Bankning so‘roviga binoan, so‘rov olingan kundan e’tiboran 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirmay, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq qo‘shimcha hujjatlar (ma’lumotlar) taqdim etish;

4.2.5. Omonatchi omonat muddatidan oldin qaytarilishini talab qilmoqchi bo‘lgan taqdirda, omonatni olishning mo‘ljallangan sanasidan kamida bir oy oldin o‘z niyati to‘g‘risida Bankni xabardor qilishi shart. Xabarnoma Bankka Tizim orqali, Tizimda belgilangan tegishli harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan yoki Omonatchi tomonidan Tizimda ko‘rsatilgan Bank bo‘linmasiga yozma ariza taqdim etish orqali yuborilishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 762-moddasi 5-qismi).

5. TOMONLARNING HUQUQLARI

5.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Omonatchining mavjud pul mablag'larini moliyaviy resurslar manbai sifatida foydalanish, omonatni qaytarish talabi qo'yilganda ularning mavjudligini hamda uning egasining ushbu mablag'larni to'siqlarsiz tasarruf etish huquqini kafolatlash;

5.1.2. Omonatchidan uning shaxsini identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishni talab qilish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq Omonatchidan hisobvaraq bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash;

5.1.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Omonatchining Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish va Omonatchining Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini bajarishni rad etish (mablag'larni kirim qilish operatsiyalari bundan mustasno);

5.1.4. Hisobvaraqni kreditlash yoki debetlash bo'yicha xato yozuv aniqlangan taqdirda, Bank Omonatchi bilan qo'shimcha ravishda kelishmagan holda Hisobvaraqni debetlash yoki kreditlash yo'li bilan tuzatishlar kiritishga haqli.

5.2. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. Bankdan bank xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha zarur ma'lumotlar va maslahat xizmatlarini hamda operatsiyalarning bajarilishini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni olish;

5.2.2. Hisobvaraq holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shu jumladan ma’lumot taqdim etilgan sanadagi pul mablag‘lari qoldig‘i, hisoblangan foizlar summasi va to‘langan foizlar summasi haqidagi ma’lumotlarni og‘zaki yoki yozma so‘rov asosida oyiga bir marta bepul olish. Omonatchi tomonidan bir oy davomida takroran murojaat qilingan taqdirda, mazkur ma’lumotlarni taqdim etish uchun Bank Tariflariga muvofiq haq undiriladi;

5.2.3. Omonat va omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni shaxsan o'zi yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi o'z vakili orqali tasarruf etish;

5.2.4. pul mablag'larini (omonat summasi va hisoblangan foizlarni) pul mablag'lari qoldig'i doirasida tasarruf etish;

5.2.5. Omonat muddati tugaganidan so‘ng omonat summasini va unga tegishli foizlarni talab qilib olish hamda hisobvaraqni yopish;

5.2.6. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, omonatni ushbu Shartnomaning 3.3-bandida nazarda tutilgan shartlar asosida qaytarib olish hamda hisobvaraqni yopish.

6. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar mazkur Shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlari bajarilmaganligi uchun O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladilar.

6.2. Bank tomonidan mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda Omonatchining omonatni yoki qisman qaytarish to’g’risidagi talabnomasi bajarilmagan holda, Bank Omonat bo’yicha foizlar to’lovidan qat’iy nazar O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 327-moddasiga muvofiq yetkazilgan zararlar o’rnini qoplashi shart.

6.3. Omonatchi depozit hisobvarag'ini ochish, Omonatchining shaxsini identifikatsiya qilish va depozit hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish uchun Bankka taqdim etiladigan hujjatlarning haqqoniyligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi, shuningdek mablag'larni joylashtirish va Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishning qonuniyligi uchun javobgar bo'ladi.

6.4. Shartnomaning ijro etilishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar, shuningdek Hisobvaraqqa xato o'tkazilgan pul mablag'lari, Bankka oldin xabar qilingan ma'lumotlarning o'zgarganligi, vakilning vakolatlari tugatilganligi haqida Bankni o'z vaqtida / to'liq yozma ravishda xabardor qilmagan taqdirda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar uchun javobgarlik to'liq Omonatchining zimmasiga yuklatiladi.

7. KOMPLAYENS-TALABLAR

7.1. Tomonlar Shartnoma doirasida amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Bankning ichki hujjatlari, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish, korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashish, sanksiyalar va eksport nazorati sohasidagi talablarga rioya etadilar.

7.2. Mijoz Shartnoma doirasida quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiya, pora berish yoki olish, firibgarlik va boshqa noqonuniy faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirmaslik;

sanksiyalar ostidagi shaxslar, tashkilotlar, banklar yoki boshqa sub’ektlar bilan qo‘llaniladigan sanksiya talablariga zid bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirmaslik;

eksport nazorati talablariga rioya qilish;

bankka mijoz, uning benefitsiar mulkdorlari, kontragentlari, operatsiyalari, shartnomalari, tovarlar (ishlar, xizmatlar), pul mablag‘larining manbalari va harakati to‘g‘risida to‘liq, haqqoniy va dolzarb ma’lumotlarni taqdim etish.

7.3. Mijoz Shartnomaning ushbu bo‘limida nazarda tutilgan talablarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan zararlar, xarajatlar, jarimalar va boshqa oqibatlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

7.4. Bank komplayens-xatarlarni baholash maqsadida Mijozdan qo‘shimcha hujjat va ma’lumotlarni so‘rashga, operatsiyalarni tekshirishga, shuningdek qonunchilikka, Bankning ichki hujjatlariga yoki vakil banklarning talablariga muvofiq operatsiyani rad etishga, cheklashga, kechiktirishga yoki to‘xtatib turishga haqlidir.

7.5. Mijoz Shartnomaning ushbu bo‘limi talablarini buzgan taqdirda yoki Bank uchun maqbul bo’lmagan komplayens-xatar, sanksiyaviy yoki boshqa huquqiy xatar yuzaga kelganda, Bank qonunchilik va Shartnoma shartlariga muvofiq shartnomaviy munosabatlarni cheklash yoki bekor qilish huquqiga ega.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Bank Omonatchiga ushbu Shartnomaning tuzilishi, ijro etilishi, o'zgartirilishi va bekor qilinishi bilan bog'liq bo'lgan arizalar, bildirishnomalar, xabarlar, so'rovlar, talablar va boshqa huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan xabarlar hamda hujjatlarni quyidagi usullar orqali yuborishga haqli:

8.1.1. Elektron shaklda quyidagilar orqali:

- Mobil banking tizimi;
- Omonatchi Hisobvaraqni ochish vaqtida ko'rsatgan yoki Bankka u belgilagan tartibda xabar qilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish orqali;
- Bankka taqdim etilgan Omonatchining tegishli elektron pochtasi orqali.

8.1.2. Qog'oz shaklda – Bank bo'linmasida Omonatchiga topshirish yo'li bilan yoxud Bankka taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan Omonatchining manziliga pochta jo'natmasi yoki kurerlik xizmati orqali yuborish yo'li bilan.

8.2. Omonatchi Bankka ushbu Shartnomaning ijro etilishi bilan bog'liq xabarlar va hujjatlarni quyidagi usullar orqali yuborishga haqli:

8.2.1. Agar tegishli funksiya Tizimda nazarda tutilgan va Omonatchi uchun mavjud bo'lsa, Tizim orqali elektron shaklda yoxud ushbu Shartnomada ko'rsatilgan yoki Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Bankning rasmiy elektron pochta manzili orqali.

8.2.2. Qog'oz shaklda – hujjatlarni Bank bo'linmasiga taqdim etish yo'li bilan yoxud ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Bankning yuridik manziliga pochta jo'natmasi orqali yuborish yo'li bilan.

8.3. Ushbu bo'limda nazarda tutilgan usullar orqali xabarlar va hujjatlar almashinuvi Tomonlar tomonidan ushbu Shartnoma doirasida o'zaro hamkorlik qilishning maqbul usuli sifatida tan olinadi. Elektron shaklda yuborilgan xabarlar va hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda olingan xaмda yuridik kuchga ega deb tan olinadi.

8.4. Bank tomonidan Omonatchiga yuborilgan xabarlar va hujjatlar quyidagi holatlarda olingan deb hisoblanadi:

8.4.1. Tizim orqali yuborilganda – xabar yoki hujjat Tizimga joylashtirilgan paytdan boshlab yoxud Tizimning tegishli funksionali bunday vaqtni aniqlash imkonini bersa, Bank tomonidan yuborilgan paytdan boshlab.

8.4.2. SMS-xabarnoma orqali yuborilganda – Bank tomonidan Mijoz tomonidan ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborilgan paytdan boshlab.

8.4.3. Elektron pochta orqali yuborilganda – agar xabarning yetkazilganligi yoki yetkazilmaganligi haqidagi ma'lumotlar bilan boshqacha holat tasdiqlanmagan bo'lsa, Bank tomonidan Omonatchi ko'rsatgan elektron pochta manziliga elektron xabar yuborilgan paytdan boshlab.

8.4.4. Bank bo'linmasida topshirilganda – xabar yoki hujjat Omonatchiga imzo qo'ydirib topshirilgan paytdan boshlab yoxud Omonatchining uni olishdan yoki olishni tasdiqlovchi hujjatni imzolashdan bosh tortganligi qayd etilgan paytdan boshlab.

8.4.5. Pochta jo'natmasi yoki kurerlik xizmati orqali yuborilganda – agar bunday tartib O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmasa, yetkazib berish tasdiqnomasida ko'rsatilgan yetkazib berish sanasida, yoxud olishdan bosh tortish, saqlash muddati o'tishi yoki Omonatchi taqdim etgan manzil bo'yicha yetkazib berish imkoni yo'qligi sababli jo'natma Bankka qaytarilgan sanada.

8.5. Omonatchi Bankka taqdim etilgan mobil telefon raqami, elektron pochta manzili, pochta manzili va boshqa aloqa ma'lumotlari o'zgarganligi haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilishga majbur. Tegishli ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi xabarnoma Bank tomonidan olingunga qadar, Omonatchi tomonidan oldin taqdim etilgan aloqa ma'lumotlari bo'yicha yuborilgan xabarlar va hujjatlar Omonatchi ko'rsatgan rekvizitlar bo'yicha yuborilgan deb hisoblanadi.

8.6. Ushbu bo'lim qoidalari Omonatchining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan Hisobvaraq va u bo'yicha operatsiyalar to'g'risida ma'lumot olish huquqini cheklamaydi, shuningdek, agar bunday talablar qonunchilik yoki ushbu Shartnoma bilan o'rnatilgan bo'lsa, bildirishnomalarni yuborish shakli, tartibi va muddatlariga nisbatan maxsus talablarni almashtirmaydi.

8.7. Omonatning qaytarilishi Bankning barcha mol-mulki bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida»gi Qonuniga (18.02.2025 yildagi O'RQ-1031-son) muvofiq jismoniy shaxslarning omonatlari kafolatlangan ob'ektlar hisoblanadi. Kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz qonunchilikda belgilangan quyidagi miqdorlarda bir bankda kompensatsiya olish huquqiga ega:

- kafolatlash obyekti qoldig’ining to‘liq hajmini, agar uning miqdori 200 (ikki yuz) million so‘m yoki undan kam bo‘lsa;
- 200 (ikki yuz) million so’mni, agar kafolatlash obyektining qoldig’i 200 (ikki yuz) million so‘mdan ko’p bo’lsa.

Omonatchining bir bankda bir nechta kafolatlanish obyektlari mavjud bo‘lgan taqdirda, kompensatsiyaning umumiy summasi Qonunda belgilangan cheklangan miqdorga muvofiq belgilanadi, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

8.8. Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab hamda omonat hisobvarag'iga ushbu Shartnoma bilan belgilangan pul mablag’lari kiritilgan kundan boshlab kuchga kiradi va ushbu Shartnomaning 1.7-bandida ko'rsatilgan hisobvaraqdan omonatning to'liq summasi Omonatchiga berilgan paytdan boshlab o'z amal qilishini to'xtatadi. Ushbu Shartnomaning amal qilishi to'xtatilganda omonat hisobvarag’i yopiladi.

8.9. Omonat bo'yicha pul mablag'larini qabul qilish va to'lash, shuningdek Omonatchining Bankka shaxsan murojaat qilishi chog'ida Bank tomonidan omonat bo'yicha ma'lumot taqdim etish Omonatchi taqdim etgan shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiriladi.

8.10. Ushbu Shartnomaning barcha o'zgartirish va qo'shimchalari Tomonlarning kelishuviga ko'ra amalga oshiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilingan holda, shartnoma mazmunini va Tomonlarning xohish-irodasini ishonchli aniqlash imkonini beruvchi yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

8.11. Ushbu Shartnoma bilan nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

8.12. Ushbu Shartnomaning tuzilishi, bekor qilinishi, ijro etilishi munosabati bilan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, shuningdek kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday nizolar Tomonlar tomonidan muzokaralar olib borish yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar Bank joylashgan joyi bo'yicha Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudida («Asia Alliance Bank» ATB Amaliyot boshqarmasi yoki Bank xizmatlari mintaqaviy ofisi joylashgan manzili bo'yicha) ko'rib chiqilishi lozim.

8.13. Ushbu Shartnoma har bir taraf uchun bittadan, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

8.14. Omonatchi omonat shartlari bilan tanishib chiqdi va ularga roziligini bildiradi.

9. BANKNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI

«Asia Alliance Bank» ATB

Yuridik manzil: Toshkent shahar,
Yashnobod tuman,
Maxtumquli ko’chasi, 2a
STIR: 207018693
IFUT: 64190 KTUT: 22921172
Bank rekvizitlari:
29802000000001095001
МФО: 01095
tel.: 998 71-231-60-00